

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc32/30.07.2024 Yu.74.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**XO‘JANAZAROVA MAQSUDA MUHAMMADIEVNA**

**XOTIN-QIZLAR JINOYATCHILIGINING PROFILAKTIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash.  
Probatsiya faoliyati.**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Хо‘janazarova Maqsuda Muhammadievna**

Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish ..... 3

**Хўжаназарова Мақсуда Муҳаммадиевна**

Совершенствование профилактики женской преступности..... 19

**Хо‘janazarova Maqsuda Muhammadievna**

Improving the prevention of women's crime ..... 35

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 40

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc32/30.07.2024 Yu.74.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**XO‘JANAZAROVA MAQSUDA MUHAMMADIEVNA**

**XOTIN-QIZLAR JINOYATCHILIGINING PROFILAKTIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash.  
Probatsiya faoliyati.**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu759 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://mgjxu.uz/>) va “Ziyo.net” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismailov Isamiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Sharipov Sanjar Sobirovich**  
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**  
**Malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.07.2024.Yu.74.03-raqamli ilmiy Kengashning 2024-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +998971 230-32-71; faks +99871 230-32-50; Jxu@umail.uz ).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +99871 230-32-71; faks +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**D.M.Mirazov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlari doktori, professor

**M.I.Maxsodov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

**N.I.Xayriyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlari  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda xotin-qizlar jinoyatchiligini profilaktika qilish masalasi jamiyat barqarorligi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xotin-qizlar ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy nochorlik, ta'lim va kasbiy imkoniyatlar yetishmasligi, zo'ravonlik va kamsitishlarga duch kelgan muhitda jinoyat sodir etishga majbur bo'ladi. Bu muammoning yechimi uchun ko'plab davlatlar maxsus profilaktik choralar, reabilitatsiya dasturlari va ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarni joriy etmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, "dunyo bo'yicha ayollarning 35 foizi umri davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duch kelmoqda, BMTning ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi qamoqdagi ayollarning soni umumiy qamoqdagi aholining 6,9 foizi"<sup>1</sup>ni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibiki, davlatlar oldida xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvini amalga oshirish, profilaktik strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda xotin-qizlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabab va sharoitlarini tadqiq etish hamda ularning salmog'i ortib borishini oldini olish borasidagi choratadbirlarni amalga oshirishda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, xotin-qizlar jinoyatchiligining sabablari va omillarini, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning xususiyatlari va tendensiyalarini tadqiq etish, xotin-qizlarga nisbatan alternativ jazo choralarini joriy etish, jinoyat sodir etgan ayollarning jamiyatga qayta integratsiyasini ta'minlash, xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasida davlat va jamiyat institutlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda sohaga oid statistik va kriminologik tadqiqotlarni kengaytirish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash hamda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi<sup>2</sup>da xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tengligini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganligi, xotin-qizlar huquqlari himoyasini ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni tahlil qilish va takomillashtirish, ularga nisbatan jinoyatlar (ziyonini hisobga olgan holda zo'ravonlik, majburiy mehnat, huquqlar buzilishi) uchun javobgarlikni kuchaytirish, xalqaro huquqiy tajribani o'rganish va O'zbekiston qonunchiligida qo'llash, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevral kunidagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla

---

<sup>1</sup> World Health Organization (WHO) – Violence against women prevalence estimates, 2021.; United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC) – World Female Prison Population Report, 2022.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 01-mart kuni PF-81-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2023" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 14-mart kuni PQ-2833-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 18-aprel kuni PQ-2896-son "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlaridan Q.R.Abdurasulova, Z.S.Zaripov, I.Ismailov, Y.M.Karakterov, M.Usmonaliyev, M.H.Rustamboyev, I.T.Tulteyev, B.A.Mirenskiy, M.Q.O'razaliyev, I.Fozilov, M.Z.Ziyodullayev, J.S.Muxtorov, S.S.Niyozova, V.G.Fayzullayeva, S.B.Xo'jaqulov, Q.A.Saitqulov, M.J.Eshnazarov, B.A.Umirzakov, G'.S.Qarshiyevlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan.

MDH davlatlarida olimlardan xotin-qizlar jinoyatchiligi sohasida D.Y. Alipxanova, Ye.Alauxanov, A.P.Alekseyeva, A.A.Bakayev, N.N.Bolshova, A.B. Guseynov, D.N.Dorodonova, M.Y.Kalinkina, D.M.Kafarova, A.I.Morozov, I.R.Morokov, A.Tukeyev, A.A.Chekalina, Y.M.Antonyan, G.M.Minkovskiy, K.Ye.Igoshev, A.Avanesov, N.P.Dubinina, V.M.Kogan, I.I.Karpets, V.N.Kudryavsev, M.V. Malchanova, S.V.Fedyayev, O.A.Petryanina, Ye.B.Kurguzkina, S.V.Polubinskaya, E.A.Xasmamedov, V.A.Mishota, S.V.Fomov, O.V.Strakov, F.V.Gobechiya, M.S.Narikbayev, S.S.Ostroumov, N.F.Kuznetsova, Ye.S.Jigarev, Y.V.Samiulina, K.Y.Loginova va boshqalar xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy, huquqiy, siyosiy jihatlari turli darajalarda ta'minlash muammolarini tadqiq etganlar.

Xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlar jinoyatchiligiga oid ilmiy izlanishlarni Z.Freyd, A. Kettle, Ch.Gersenzon, E.Ferri, V.Frankl, Y.Bluvshsteyn, B.Chezare, U.Kan, R.Xayns, O.Byuring kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Mamlakatimizda bugungi kunga qadar, xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish mavzusida maxsus tadqiqot ishlari olib borilmaganligi bois uni o'rganish zarurati mavjud hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan

ilmiy-tadqiqot ishlari kompleks dasturining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasining huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot ishining vazifalari:**

xotin-qizlar jinoyatchiligining mohiyati va zamonaviy holatini o‘rganish;

jinoyat sodir etgan xotin-qizlarga tavsif berish;

xotin-qizlar jinoyatchiligining sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni tahlil qilish asosida mazkur faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasi huquqiy va tashkiliy asoslarini tahlil qilish;

xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasiga doir ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va ularning ilg‘or tajribasini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berish;

xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasi sub’yektlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorligining yo‘nalishlarini belgilash;

xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasi bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqot predmetini** xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so‘rovi, empirik material va statistik ma‘lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog‘lig‘ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlar mavjud bo‘lmasa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yuz oltmish soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolash choralarini belgilash zarurati asoslab berilgan;

har bir mahallaga bir nafardan ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'yicha inspektorlarning shtat lavozimlarini joriy etish orqali xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini samarali tashkil etish asoslantirilgan;

birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lmagan va sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish natijasida ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotishga yoxud biron a'zoning ishdan chiqishiga yoki uning funksiyalari tamoman yo'qolishiga, ruhiy holatning buzilishiga yoki sog'liqning boshqacha tarzda yomonlashuviga, umumiy mehnat qobiliyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismining yo'qolishiga yoki homilaning tushishiga yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo'luvchi oqibatlariga olib kelmagan, lekin sog'liqning uzoq vaqt, ya'ni kamida yigirma bir kun, ammo to'rt oydan ko'p bo'lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizidan o'ttiz uch foizigacha yo'qolishiga sabab bo'lgan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish harakati uchun uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolashni belgilash asoslab berilgan;

ichki ishlar organlari tomonidan himoya orderi nusxasini olgan, ya'ni tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni profilaktik hisobga olish tartibini belgilash orqali xotin-qizlar huquq hamda manfaatlarini samarali ta'minlash mumkinligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini manzilli tashkil etish mexanizmini takomillashtiish chora-tadbirlari to'g'risida konsepsiya” loyihasi ishlab chiqilgan;

“Xotin-qizlar jinoyatchiligi”, “xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi”, “oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar”, “notinch oila” “Huquqbuzarlikdan jabrlangan xotin-qizlarga jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan xotin-qizlar” tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini mahallalarda samarali tashkil etish uchun profilaktika inspektori tomonidan “Xonadon daftari” idoralararo yagona axborot portalini yuritilishi hamda ushbu partalda “Sariq daftar” va “Qizil daftar”lar bo'lishi hamda unda mahalla hududida huquqbuzarlik sodir etgan, sodir etishga moyil, shuningdek, viktimologik jihatdan himoyaga muhtoj yoxud jabrlangan xotin-qizlar bilan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ularning hisobini yuritishni tashkil etish maqsadida axborot portalida “Ma'lumotlar tizimi” bazasining tashkil etilishi asoslantirilgan;

xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida “Ayollar daftari”ni shakllantirishda huquqiy yordam olishga muhtoj xotin-qizlar huquqiy maslahat olish istagida bo'lgan, huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida murojaat qilganlarni ham inobatga olinishi kerakligi, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni turli

tahdidlardan ichki ishlar organlari himoya qilishi vazifa sifatida kiritilishi lozimligi taklif etilgan;

xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyotiga asoslangan, sosiologik tadqiqotlar, anketa so‘rovi (350 nafar respublika IIV xotin-qizlar masalalari bo‘yicha (katta) inspektor hamda profilaktika (katta) inspektorlari ishtirokida) o‘tkazilgan, statistik ma‘lumotlar va 200 ta jinoyat ishlari va Toshkent shahridagi 250 ta o‘rganilgan nizoli oilalar tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan, olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash amaliyoti, xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini tartibga soluvchi qonun normalari va ularni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, tegishli qonun normalarini sharhlashda, sohaga oid nazariy bilimlarni boyitishda va yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirishda, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati” va “Kriminologiya” fanlarini o‘qitishda, ushbu fanlar bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik materiallar tayyorlashda qo‘llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog‘lig‘ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlarini mavjud bo‘lmasa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yuz oltmish soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolash choralarini belgilash yuzasidan takliflari O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasining 14-qismini 3-4-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzaridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 6-fevraldagi 3-dn-15-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog‘lig‘ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqitish uchun jazo choralarini og‘irlashtirish orqali oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikni oldini olishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi: “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarida xodimlarning cheklangan umumiy soni doirasida xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha inspektor va psixolog shtatlarini joriy etishga doir takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-iyundagi “Buxoro viloyatini xotin-qizlar bilan ishlash yo‘nalishida namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 495-son Qarorining 13-bandining 3-qismini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar, jamoat tashkilotlari, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash masalalari kotibiyatining 2022-yil 02-apreldagi 14/1-1940-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi joylarda xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasiga xizmat qilgan;

birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lmagan va sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotishga yoxud biron a‘zoning ishdan chiqishiga yoki uning funksiyalari tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatning buzilishiga yoki sog‘liqning boshqacha tarzda yomonlashuviga, umumiy mehnat qobiliyatining o‘ttiz uch foizidan kam bo‘lmagan qismining yo‘qolishiga yoki homilaning tushishiga yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo‘luvchi oqibatlarga olib kelmagan, lekin sog‘liqning uzoq vaqt, ya’ni kamida yigirma bir kun, ammo to‘rt oydan ko‘p bo‘lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining o‘n foizidan o‘ttiz uch foizigacha yo‘qolishiga sabab bo‘lgan qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish harakati uchun uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolashni belgilash yuzasidan takliflari O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 14-qismini 11-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzaridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 6-fevraldagi 3-dn-15-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikni oldini olishga xizmat qilgan.

Ichki ishlar vazirligi himoya orderi nusxasini olgan, ya'ni tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishga doir takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5116-son Qarorining 9-qismi b) bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar Qo'mitasining 2022-yil 18-oktyabrdagi 04/3-02-36-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi joylarda xotin-qizlarga tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan manzilli profilaktik chora-tadbirlarni olib borishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 4 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 26 ta, jumladan 1 monografiya, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga OAK tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 18 ta (shundan 6 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'qqiz paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 142 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **"Xotin-qizlar jinoyatchiligining nazariy tavsifi, tahlili va sabablari"**ga bag'ishlangan birinchi bobi uchta paragrafni o'z ichiga oladi. Ushbu bobda xotin-qizlar jinoyatchiligining mohiyati va zamonaviy holati, "ayollar", "xotin-qizlar", "xotin-qizlar jinoyatchiligi" tushunchalari hamda xotin-qizlar jinoyatchiligining dinamikasi, darajasi va tuzilishi, jinoyat sodir etgan xotin-qizlarning tavsifi, xotin-qizlar jinoyatchiligining sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar o'rganilib, tahlil qilingan.

Mazkur bobda "xotin-qizlar jinoyatchiligi" tushunchasi va xususiyatlari, xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasi amalga oshirish choralari, xotin-qizlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ilmiy adabiyot va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida yoritilgan.

Xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini ta'minlashning majmui shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb ehtiyojlarini amalga oshiruvchi muhim shartlardan biri xisoblanadi.

Amalga oshirilgan o'rganishlar xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan qo'llaniladigan jinoiy jazolar, cheklov choralari liberallashtirish hamda xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini ta'minlashning samarali mexanizmlarini shakllantirishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatgan.

Shu bilan birga muallif, bugungi kunda xotin-qizlar va erkaklar jinoyatchiligi o'rtasidagi tafovutlar jamiyatdagi o'zgarishlardan kelib chiqib kamayib borayotganligini xotin-qizlar jamiyat hayotining barcha sohalarida erkaklar bilan teng faoliyat yuritayotganligi bilan asoslagan.

Mazkur bobda, xotin-qizlar jinoyatchiligi sodir etilishida iqtisodiyot sohasidagi, jumladan, firibgarlik, o'g'rilik, bezorilik, giyohvandlik vositalarini tayyorlash va o'tkazish kabi "umumiy" jinoyatlarning salmog'i yuqoriligidan dalolat berishi, qasddan odam o'ldirish, badanga shikast yetkazishni xotin-qizlar ko'pincha oilaviy-maishiy mojarolar negizida sodir etilganligi, bunda ko'pincha jabrlanuvchilar, asosan aybdorlarning eri yoki jazmanining viktim, provokatsionon xulq-atvori yetakchi rol o'ynayotganligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida xotin-qizlar jinoyatchiligining asosiy sabablari sifatida, *birinchidan*, jamiyatdagi qiyinchiliklar, ertangi kunga ishonchsizlik, hayotning yangi sinovlariga chiday olmaslik, ya'ni ularning irodasizligi; *ikkinchidan*, xotin-qizlarning oilada bola tarbiyasi bilan birga oila boshqaruvi ham yelkasida ekanligi; *uchinchidan*, jamiyatimizdagi ayrim holatlar xalqimizda "oilam muqaddas" degan qadriyatlarni yo'qolib borayotganligi; *to'rtinchidan*, xotin-qizlariga ayrim "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlarining kuchayib borayotganligi ochib berilgan.

Shulardan kelib chiqib, tadqiqotchi jinoyat sodir etgan xotin-qizlar (jinoyatchi shaxsi) tiplariga zamon va makon rivojlanishi natijasida yana bir nechta quyidagi tipik ko'rinishlarni qo'shimcha ravishda kiritish lozim, deb hisoblaydi:

*o'z qilmishining oqibatini tushinish imkoniyati cheklangan jinoyatchi xotin-qizlar* – giyohvandlik vositasi ta'sirida, mast xolatda, ruhiy tushkunlik va depressiya holatida o'z qilmishining oqibatini anglash imkoni bo'lmagan xotin-qizlar;

*ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qiynalgan jinoyatchi xotin-qizlar* – muayyan bir kasbga ega bo'lmagan yoki juda kam daromadli, daromadi o'z ehtiyojlariga yetmaganligi sababli jinoiy yo'l bilan daromad topadigan xotin-qizlar;

*jinoyatni kasb qilib olgan jinoyatchi xotin-qizlar* – jamiyatda o'z o'rniga boshqa kasb bilan ega bo'lmagan, faqat oson pul va jinoiy yo'l bilan daromad topadigan xotin-qizlar.

Dissertatsiyaning "**Xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy va huquqiy asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy va huquqiy asoslari, ularni amalga oshiruvchi subektlar tizimi, shuningdek faoliyatning bugungi holati ilmiy tahlil qilingan hamda muammolar aniqlanib, ularni yechimiga oid fikr va mulohazalar bildirib o'tilgan.

Tadqiqotchi xotin-qizlar jinoyatchilining profilaktikasi xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, ularga barham berish, ular tomonidan sodir etilgan

jinoyatlarning sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi sifatida mualliflik ta'rifi berilsa va ushbu faoliyat bo'yicha yagona huquqiy normalar tizimi ishlab chiqilsa hamda hamkorlik bo'yicha subektlar faoliyatining asosiy vazifalari belgilansa, mazkur faoliyat bo'yicha hamkorlik samarali tashkil etiladi deb hisoblaydi.

Shuningdek, dissertant xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini ta'minlashda samarali bo'lgan profilaktika turlari va ularning chora-tadbirlarini aniqlab olish, bunda jinoyat sodir etgan xotin-qizlarning ijtimoiy-demografik (yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, kasbi, ma'lumoti, yashash va o'qish joylari kabilar), ma'naviy-ruhiy (ehtiyoji, qiziqishi, ijtimoiy jarayonlarga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, mehnatga, o'qish va ishga, yon-atrofidagilarga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi, temperament va xarakteri kabilar) va biofiziologik (jismonan va ruhan sog'lig'i, genetik xususiyatlari, jismoniy tuzilishi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari, yosh davriga xos biofiziologik belgilari kabilar) xususiyatlarini inobatga olgan holda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Muallif xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini tashkil etish jarayonida ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olib, turmushidan ajragan va ijtimoiy himoyaga muhtoj, ma'naviy tarbiyasi shakllanmagan, yengil tabiatli, huquqlari buzilgan, tazyiq va zo'ravonliklarga uchragan, boylik va shohona hayotga qiziquvchi, ishsiz, sog'lig'ining turli tarzda buzilishi oqibatida davolanishga muhtoj xotin-qizlar toifalariga ajratgan holda chora-tadbirlarni qo'llash taklifi ilgari surilgan.

Dissertant ayrim mamlakatlarda xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasining tashkiliy va huquqiy asoslarini tahlil etib, bunda eng muhim choralar sifatida: xotin-qizlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash sharoitlarini yaxshilash; har bir davlatning milliy qonunchiligiga xotin-qizlar jazoni o'tashi uchun maxsus sharoitlar yaratilishiga doir xalqaro standartlarning joriy etilishini kuchaytirish; xotin-qizlar retsidiv jinoyatchiligini profilaktika qilishning asosiy yo'nalishi sifatida ijtimoiy-psixologik adaptatsiya (moslashuv) mexanizmlarini ishlab chiqish; penitensiar tizimning profilaktik funksiyasini, penitensiar siyosatning huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollarini belgilash zarur degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi xotin-qizlar jinoyatchiligining maxsus profilaktikasini tashkil etish normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilab berilmaganligi, xotin-qizlarning sodir etgan jinoyatlaridan kelib chiqib maxsus profilaktik tadbirlar ishlab chiqilmaganligi, shu jumladan aloxida maxsus rejalar va buyruqlar qabul qilinmaganligi sababli xotin-qizlarning maxsus profilaktik chora-tadbirlarini amalga oshirishda muayan qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligini ta'kidlab, ushbu masalada yuqori samadorlikka erishish uchun ularga nisbatan ko'proq huquqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish lozim deb hisoblaydi.

Dissertatsiyaning **“Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy davlatlarning xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasiga oid tajribasi o'rganilgan, shuningdek, xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasining subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hamda

xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirishga doir taklif, tavsiyalar shakllantirilgan.

Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda quyidagi asosiy jixatlar ko'zga tashlangan:

*AQSH*da "Neighborhood watch" (Mahalla nazorati yoki qo'shning kuzatuv) maxsus profilaktik tadbirida jinoyat sodir etgan hamda jazo muddati tugab, ozodlikka chiqqan shaxsga ikki yillik kuzatuv muddati tayinlanib, kamida ikki nafar qo'shnilari kuzatuv chorasi talablari bilan tanishtirilishi, ularga davlat tomonidan har oyda moddiy yordam ko'rsatilishi, ushbu davrda shaxs jinoyat sodir etmasa, qo'shnilari rag'batlantirilishi mexanizmi mavjudligi ko'rsatib o'tilgan.

*Germaniyada* oilaviy kelishmovchilikni oldini olish maqsadida, bunday qilmishni sodir etgan, er yoki xotinni oltmish kungacha bir-biridan ajratib, alohida ijtimoiy-reabilitatsiya markazlariga joylashtirishi belgilangan.

*Yaponiyada* jinoyatlarni profilaktikasini ta'minlashga oid, "Akalar va opalar", "Ota-onalar va o'qituvchilar" jamiyatlari, o'zini o'zi boshqarish qo'mitalari hamda politsiya bilan aloqa punktlari yo'lga qo'yilganligi keltirib o'tilgan.

*Rossiya Federatsiyasida* jinoyatchilikning profilaktikasi bo'yicha davlat politsiyasiga ko'maklashuvchi jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda bevosita huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajaruvchi jamoatchilik tuzilmalari – tartibni saqlash tayanch punktlari; ko'ngilli xalq drujinachilari, kazaklar jamiyati, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning mehnat jamoalari negizida tashkil etilgan jamoatchilik tuzilmalari – komissiyalar, seksiyalar, kengashlar, markazlar; yashash joylarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi tarzida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashuvchi jamoatchilik tuzilmalari – mavzalar qo'mitalari, ota-onalar qo'mitalari, jamoatchi tarbiyachilar; muayyan masalalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan jamoatchilik yurisdiksiyaviy organlari – ma'muriy komissiyalar, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga ajratilganligini bildirgan.

*Braziliyada* jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumalar bir dona kitobni to'liq o'qib chiqqanida ularning jazo muddati to'rt sutkaga qisqartirilishini, bu esa jazoni o'tayotgan mahkumalarda kitobxonlikni oshirishga hamda ma'naviy-ma'rifiy saviyalarining oshishiga hamda kelgusida jinoyat sodir etishdan tiyilishiga asos bo'ladi deb hisoblagan.

Ishning xulosa qismida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotning natijalari ilmiy-nazariy xulosalar, xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga doir takliflar va xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasi amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar taklif va tavsiyalar keltirilgan.

## XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1. Xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasiga oid ilmiy qarashlar va tushunchalarni tahlil etish natijasida quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi:

**Xotin-qizlar jinoyatchiligi** – muayyan hudud (mamlakat yoki uning ma'muriy-hududiy birligi)da, ma'lum davr (oy, chorak, yarim yil, to'qqiz oy, yil, ikki yil va boshq.)da xotin-qizlar tomonidan (14 yoshdan yuqori) sodir etilgan barcha jinoyatlar majmuini o'z ichiga olgan, belgilangan miqdor va sifat ko'rsatgichlari bilan ta'riflanadigan, yashirin xususiyatga ega, nisbatan ommaviy, obyektiv, tarixiy o'zgaruvchan, salbiy ijtimoiy hodisa.

**Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi** – xotin-qizlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shunngdek ular tomonidan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining ququqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi.

**Huquqbuzarlikdan jabrlangan xotin-qizlar** – jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan xotin-qizlar.

**Oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlik** – oila a'zolari, shajaralar bo'yicha bir-biriga qarindosh bo'lgan shaxslar o'rtasida sodir etilgan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarliklar.

**Notinch oila** – oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik sodir etilgan, oila-turmush munosabatlari doirasida nizoli masalalar mavjud bo'lgan oila.

